


Bir kun bir kitob: Said Ahmad "Ufq"

// 05.03.2026

<https://uzkimyoanoat.uz/oz/press/news/bir-kun-bir-kitob-said-ahmad-ufq>



"O'zkimyoanoat" AJ kitobxonlik madaniyatini keng targ'ib qilish maqsadida "Bir kun — bir kitob" ruknini yo'lga qo'ydi. Ushbu rukn orqali jamiyatning elektron kutubxonasida jamlangan o'zbek va jahon adabiyotining sara namunalarini mutolaa qilishingiz mumkin.

Bugun sizga o'zbek adabiyotining mashhur yozuvchisi Said Ahmad qalamiga mansub "Ufq" romanini tavsiya qilamiz.

"Ufq" trilogiyasi XX asr millat hayotining o'n yillik davri – ikkinchi jahon urushi, urush va urushdan keyingi yillar voqealarini o'z ichiga oladi.

Trilogiyada o'sha yillari xalq boshiga tushgan musibatlar, odamlar ko'ksidagi armonlar, shu munosabatlarni yengishga qodir mislsiz matonat va shijoatlar yozuvchi iste'dodiga xos ehtiros, zo'r ilhom bilan aks ettirilgan. Asarda Ikromjon, Jannat, Azizxon, Dildor, Asrora kabi teran, xalqchil, yorqin milliy obrazlar yaratilgan

"Ufq" romani o'quvchini o'ylantiradi, hayotga boshqacha nigoh bilan qarashga undaydi.

Kitobni elektron tarzda o'qish uchun: https://t.me/uks_digital_library/622